

BIR G‘AZAL SHARHI

Shokirova Hilola

TDSHU Matnshunoslik va adabiy
manbashunoslik yo‘nalishi magistranti

Alisher Navoiy nomini eshitganimizda, buyuk davlat arbobi, shoir, mutafakkir, ilohiy va irfoniy g‘azallar muallifi hayolimizda gavdalanadi. Navoiy qoldirgan adabiy merosni hikmat marjonlari to‘la dengizga o‘xshatish mumkin.¹ Alisher Navoiy asarlarini o‘granish uchun eng avvalo, falsafiy dunyoqarshga bundan tashqari diniy, tasavuffiy bilimlarga ega bo‘lish kerak. Fikrimni isboti sifatida adabiyotshunos olim, filologiya fanlari doktori, tasavvuf ilmining bilimdoni Najmiddin Komilovning fikrlarini havola qilaman: “Sharq xalqlari tafakkuri tarixida chuqur ildiz otgan tasavvuf ta‘limotini yaxshi bilmay turib, Alisher Navoiy dunyoqarashi va adabiy merosini barcha murakkabliklari, falsafiy teranligi bilan to‘liq holda to‘g‘ri, haqqoniy yoritib berish mushkul...”²

Davlatshoh Samarqandiy ham Alisher Navoiyning “Mir Nizomiddin”, ya‘ni “dinning nizomi - qonuni” deb bejiz ulug‘lamagan. Hazrat Navoiyning deyarli barcha asarlarida, xususan, “Xamsa” dostonlarining muqaddimalarida Allohga hamd, payg‘ambarga na‘t, munojot va rasululloh (s.a.v.)madhining mavjudligiyoq bu fikrni tasdiqlaydi.³

Alisher Navoiyning “Hazoyin ul-maoniy” sidan o‘rin olgan “Iloho, podshoho, kirdigoro...” deb boshlanuvchi g‘azali fikrimizning isboti desak xato qilmagan bo‘lamiz.

G‘azalning birinchi misrasidanoq Alloh taoloning go‘zal ismlari va sifatleri bilan boshlanayotganini ko‘rishimiz mumkin:

Iloho, podshoho, kirdigaro,
Sanga ochig‘ nihon-u oshkoro

Baytdagi kirdigaro so‘zi, “yaratuvchi, Xudo, tangri taolo” degan ma‘noni anglatadi. Ya‘ni birinchi baytni quyidagicha tahlil qilish mumkin, Yakka-yu yagona, olamlar podshohi va butun borliqning yaratuvchisi Alloh taolo ekanligi ta‘kidlanib, Allohning ulug‘ ismlari ya‘ni Ismi A‘zamga ishora qilinyapti.

“Ismi A‘zam” birikmasi “eng ulug‘ ism” ma‘nosini anglatadi. Alloh taolo ismlarining eng ulug‘i Ismi A‘zam, deyiladi. Kimda-kim Ismi A‘zam bilan Allohga iltijo qilsa, duosi mustajob bo‘ladi.⁴ Shuningdek barcha yashirin va oshkora qilingan gunoh ishlari-yu xayrli va savobli amallarning barchasi Allohga a‘yondir. U ko‘ruvchi va biluvchi Zotdir.

Sabur ismi bila qilsang tajalliy,
Qilib Namrudg‘a yuz ming mudoro.

Baytdagi sabur so‘zi, “sabrli, toqatli, chidamli, bardoshli” ma‘nosida, tajalliy so‘zi esa, “ko‘rinish, jilvalanish” ma‘nosida qo‘llanilgan bo‘lib, jannatga kirish eshiklari sabr orqali ekanligiga ishora desak ham bo‘ladi. Ikkinchi baytning birinchi misrasini quyidagicha tushinish mumkin, sabr ila jiddu jahd qilsa, ya‘ni Alloh taolo bandasiga kuchli sabr nurlarini sochsa Ibrohim alayhissalom kabi Namrudning yuz ming fitnasiga chidaganidek sabr qilsa, Alloh Ibrohim alayhissalomni qutqarganidek, boshqa bandalarga ham O‘zi yordam beradi. Zero, Alloh barcha narsaga qodir.

Qachonkim zohir etsang “tanzi‘-ul-mulk”
Sikandarning bo‘lub mag‘lubi Doru.

¹ “Кашқадарё” газетасидан Одилжон Бегимов мақоласи.

² <http://kh-davron.uz/kutubxona/alisher-navoiy/najmiddin-komilov-timsollar-timsoli-alisher-navoiy-gazaliga-sharh.html>

³ Д.Юсупова Ўзбек мумтоз адабиёти тарихи (Алишер Навоий даври). – Т.: “Академнашр”, 2013. Б. - 193

⁴ Зиёвуддин Раҳим Қуръон-қалблар шифоси. – Т.: Имом Бухорий халқаро маркази нашриёти, 2017. Б. - 407

Uchinchi baytdagi “tanzi’-ul-mulk” birikmasi Qur’oni Karimdagi (tanza’ul-mulka mimma tashou)- “podsholikni xohlagan odamingdan tortib olasan” oyatiga ishora.⁵ Shoir ushbu misrada Alloh barcha narsaga qodir xattoki, u har qanday o’zini qudratli, o’zini hamma nasaga qodirman deb o’ylagan podshoni ham xohlagan paytida gadoga aylantirib qo’ya oladi, yoki aksincha O’zi xohlagan bandasini podshohga aylantirib qo’ya oladi. Xuddiki, Dorodek mashhur podshohni ham Iskandardek yosh yigitga bosh egidirib mag’lub qilib qo’ygandek. Alloh Taolo O’zi har qanday vaziyatda adolatli, xalq uchun foydali yo’lga boshqaradi. Ushbu uchinchi bayt Qur’oni Karimdagi “Oli-Imron” surasi 26-oyatiga ishora desak xato bo’lmaydi.

Yo’ling muhlik toshi yoquti ahmar,
Eshiging tiyra gardi mushki soro.

To’rtinchi baytdagi “muhlik” so’zi “o’ldiruvchi, halok qiluvchi, halokatli”⁶ “ahmar”- “qizil”, “tiyragard”-“quyuq chang, to’zon, qorong’ulik”⁷ degan ma’noni bildiradi. Fikrimcha, Jannat yo’li haqida gap ketyapti. Aniqroq qilib aytganda, Allohga olib boradigan yo’l qanchalik mashshaqatli bo’lmasin, u yo’lning toshlari qizil qimmatbaho yoqutga o’xshatilyapti. Jannatning eshigi mashaqqatli amallar⁸ bilan o’ralgan, lekin shunday bo’lishiga qaramay u yerdan hushbo’y mushkanbar hidi anqib turishi aytilyapti. Soho bo’lsa shabistoninda toli’,
Bo’lub nuri quyoshdek olamaro

Beshinchi baytda eng kichik va nursiz yulduz ham qorong’u tunda nur sochsa quyosh nuri kabi butun borliqni yoritadi. Bu baytda Alloh Taoloning mag’firati biz bandalarning gunohlaridanda kengligiga ishora qilinyapti. Alloh Taoloning eng yaxshi ko’rgan bandasi unga tavba qiluvchilardir. Banda tog’dek gunoh qilib chin dildan afsuslanib, nadomat chekib bir marta tavba qilsa Alloh Taolo InshaAlloh O’z mag’firatiga olishi aytilgan hadislarda. Bu baytda ham insonning gunohlari qop-qora tunga o’xshatilyapti va tavbasi esa kichik bir yulduzga qiyos qilinyapti. Alloh esa shu kichik bo’lsa ham, lekin chin dildan qilingani uchun u bandaning butun xayotini kichik bir tavbasi orqali quyosh nuridek yorityapti. Alloh Taolo juda ham mag’firatli Zot.

Navoiy nafs zulmatig’a qolmish,
Sen o’lmay xizri rah chiqmoq ne, yoro

Bu baytda yuqorida aytib o’tilgandek, Navoiy ham o’z nafsning qorong’u tubiga tushib qolgandek xis qilyapti va Alloh taoloning O’zi bu nafsning qorong’uligidan olib chiqsa ne ajab?!

Qiyomatda gunohin afv etarg’a,
Rasulingni shafi’ et, kirdigoro

Barcha banda xohlaganidek, lirik qahramon ham qiyomat kuni o’z gunohlaridan xoli bo’lishni xohlaydi va buning uchun u Yaratgan Tangri taolodan, payg’ambarimiz Muhammad sololohi alayhi vasallamning o’zlari unung gunohlariga afv so’rab oluvchi qilsin deb duo qilib o’z g’azalini chiroyli yakunlayapti.

Alisher Navoiy – buyuk shoir, biz uning g’oyalari ustida ozgina to’xtaldik. Butun she’riyatining fasohati, go’zalligi bilan qalblarga huzur bag’ishlayni. Undagi oliy uyg’unlik, oliy san’atkorlik, oliy tuyg’ular, qaynoq muhabbat (Allohga, payg’ambarlarga, pirga, go’zal insonga, yaxshilikka muhabbatning ajabtovur uyg’unligi) ruhiy orom va ma’naviy yuksalish manbaidir. Shoirning har bir bayti – bir mo’jiza, hayrat namunasi ekanigini guvohi bo’ldik.⁹

⁵ Э.И.Фозилов тахрири остида Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати, Ўзбекистон ССР фан нашриёти 3-жилд. Б-180

⁶ Э.И.Фозилов тахрири остида Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати, Ўзбекистон ССР фан нашриёти 2-жилд. Б. - 410

⁷ Э.И.Фозилов тахрири остида Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати, Ўзбекистон ССР фан нашриёти 3-жилд. Б. - 326

⁸ Baytda “tiyragard” so’zi bilan berilgan bo’lib, mashaqqatli amallar quyuq chang-to’zonga o’xshatilyapti.

⁹ Н.Комилов Хизр чашмаси, Т.: «МАЪНАВИЯТ», 2005. Б.-26

Alisher Navoiyning g'azalidagi ma'nolar, bevosita muqaddas Qur'oni karim va hadislar bilan chambarchas bog'liq. Shoir g'azallarining ayrimlarida ketma-ket kelgan misra yoki baytlarda Qur'oni karimdagi ba'zi bir oyatlar yoki hadisi shariflarga ishorani kuzatamiz. Men ham o'z sharximda shu ishoralarni ochib berishga urunib ko'rdim. Yuqoridagi g'azalning misralarida Qur'oni karimning oyatlariga va bir qancha hadislariga ishorani ko'rib chiqdik. Bu ikki buyuk manba, barchamizga ma'lumki, Islom dinining ustuni hisoblanadi, ulardan yaxshi ilmga ega bo'lmasdan turib Husayn Bayqaro aytganidek, «Aning nazmi vasfida til qosir va bayon ojiz turur». G'azalni tushunmay turib, albatta, Navoiy tafakkuriga ham kirib bo'lmaydi. Biz qanchalik diniy, dunyoviy, falsafiy va tasavvufiy bilimlarimizni ko'paytirsak, shunchalik Navoiy asarlari sharhiga va tafakkuriga yaqinlashamiz.

Shu o'rinda aytib o'tish kerakki, insoniyatga ayniqsa biz yoshlarga Navoiyning asarlarini o'rganish, undagi tarbiyaviy pand-nasihatlarni o'zimizga singdirishimiz kerak. Shu o'rinda Najmiddin Komilov fikrlarini keltirmoqchiman: «Men aminmanki, insoniyat yangi XXI asrda Navoiy singari ulug' mutafakkir ijodkorlarga yanada ko'proq muhtoj bo'ladi. Chunki hozir insonning aqliy kashfiyoti behisob va hayratlanarli. Ammo insoniyat ma'naviy kamolot jihatidan juda ham oldinga borgan emas, aksincha, Navoiy ma'naviyati cho'qqisidan qaraydigan bo'lsak, anchagina orqaga ketganimiz ma'lum bo'ladi. Shu uchun ham Navoiyga qaytish, Navoiy olamini yangidan kashf etishning zarurati va ahamiyati katta.»¹⁰

Navoiy - ma'naviyatimiz ummoni. Undan qancha qonib ichsak, shuncha yuksalamiz.¹¹

Adabiyotlar ro'yxati:

1. «Қашқадарё» газетасидан Одилжон Бегимов мақоласи.
2. <http://khdavron.uz/kutubxona/alishernavoiy/najmiddinkomilovtimsollartimlialisher-navoiy-gazaliga-sharh.html>
3. Д.Юсупова Ўзбек мумтоз адабиёти тарихи (Алишер Навоий даври). – Т.: «Академнашр», 2013.
4. Зиёвуддин Раҳим Куръон-қалблар шифоси. – Т.: Имом Бухорий халқаро маркази нашриёти, 2017.
5. Э.И.Фозилов таҳрири остида Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати, Ўзбекистон ССР фан нашриёти 2-жилд.
6. Э.И.Фозилов таҳрири остида Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати, Ўзбекистон ССР фан нашриёти 3-жилд. Б-180
7. Н.Комилов Хизр чашмаси, Т.: «МАЪНАВИЯТ», 2005. Б.-6

¹⁰ Н.Комилов Хизр чашмаси, Т.: «МАЪНАВИЯТ», 2005. Б.-6

¹¹ Н.Комилов Хизр чашмаси, Т.: «МАЪНАВИЯТ», 2005. Б.-26